

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH BO'YICHA TASHABBUSLAR

DTPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

talabalari Turdiyeva Dilorom Toshpo'latovna

Xo'jana Surayyo Baxtiyor qizi

Hakimova Yulduz Shuxrat qizi

Annotatsiya: *Davlatning ertangi kuni yoshlarning qaydarajada bilimli ekani bilan bevosita bog'liq . Shu bois , ta'lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Mazkur maqolada ta'lim sifatini oshirish yuzasidan O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar va yangicha tashabbuslar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, ta'lim sifati, konsepsiya,tadqiqot metod, pedagog, texnologiya, xorijiy tajriba.*

Ta'lim sifatini oshirish-Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to'g'ri yo'lidir.

Taraqqiyotning tamal toshi ham,mamlakatni qudratli millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm fan, ta'lim va tarbiyadir.Mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim sohasini inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.Bunga misol tariqasida o'tgan 2023-yilga „Insonga e'tibor va sifatli ta'lim”yili deb nom berilishidir.Aslida so'ngi yillarda hayotga joriy etilayotgan barcha islohotlarning markazida inson qadri yotadi,uning manfaatlari eng oliy mezon deb qaralmoqda.Ushbu gaplarning negizida chuqur ma'no kasb etibgina qolmay,bu gaplarni amalda joriy etish,hamda ta'lim sifatini yanada oshirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu nafaqat 2023-yil uchun balki undan keyin ham ushbu yo'nalish ustuvor bo'lishini ta'minlaydi.Bugungi kungacha ham ta'lim tizimida ko'plab o'zgarishlar yuzaga kelgani va bu o'zgarishlar yangi imkoniyatlar olib kelgani bilan e'tiborlidir.Ta'lim sifatini oshirish bolalarni o'qishga qiziqtirishning muhim omili,birinchi navbatda,yaxshi darslik davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi farmoni bilan tasdiqlangan, Xalq ta'limi tizimini 2020-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifalari belgilangan.Bunga muvofiq darsliklarni



yangilash bo'yicha ish olib boorildi. Maxsus ishchi guruh tomonidan ilg'or joriy metodika asosida 1-4-sinf kitoblari yangidan tayyorlandi.

Ta'lim sifatini oshirish uchun eng muhim masala bu zamonaviy fikrlaydigan, o'z ustida doim ishlaydigan, fidoiy o'qituvchilarni tayyorlashdir. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari viloyat hokimlariga 14ta malaka oshirish malaka oshirish markazlarini tamirlash va jihozlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi va amaliy ishlar yo'lga qo'yildi. O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan o'quvchilar zo'r bilimga ega bo'lish kerak. Buning uchun o'qituvchi ham bilimdon bo'lishi lozim. Zamon talabiga javob beradigan innovator kadrlarni tayyorlash uchun birinchi galda muallimning o'zi ham yangilikga intiluvchan bo'lishi kerak. Ayniqsa, ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'qitishning yanagi pedagogik texnologiyalarini joriy etish, talabalarning bilimini mujassamligini ta'minlash, yangi zamonaviy laboratoriya uskunalaridan samarali foydalanish ta'limning sifatini yanada oshiradi.

Haqiqatdan ham hozirgi vaqtda O'zbekistonga ta'lim-tarbiyaga shu jumladan maktabgacha hamda umumiy o'rta ta'lim, oliy va o'rta maxsus kasbiy ta'limni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada dunyoning rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekistonda kasb hunar ta'lim sifatini yo'lga qo'yish, ta'lim turlari bo'yicha milliy malaka me'yorlarini ishlab chiqishda Rossiya tajribasini o'rganish va o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yildi. Mamlakat OTMLar faoliyati o'rganildi va kadrlarni tayyorlash bo'yicha ish olib borildi. Hozirgi kunga kelib barcha ta'lim muassasalari kompyuterlar bilan jihozlanmoqda. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da belgilangan vazifa davlat ta'lim standartlari hayotga tadbiq qilinayotgan bir paytda, ta'lim standartlari hayotga tadbiq qilayotgan bolalarni zamonaviy texnologiyalar orqali zamonaviy ta'lim berish ko'zda tutiladi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim tizimini isloh qilish va ta'lim tizimini yaxshilash va uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha turli maxsus guruhlar tuzilgan. Har bir ta'lim tashkiloti „Ta'lim to'g'risida“gi qonun asosida ish olib boradi. Yuqorida keltirilgan islohotlarni bardavom bo'lishini taminlash, uzluksiz ta'limni olishga katta e'tibor berish lozim. Shuni inobatga olish kerakki



yangi konstitutsiyada maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim tarbiya ishlariga davlat kafolatlari joriy etilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi bilan boshqa sohadagi islohotlardan yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

XXI asr axborot texnologiyalari davri deb nom olgan bir davrda barcha ta'lim muassasalari, xishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, kimyo, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak sohalarda taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyo taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda. Fikrimiz so'ngida shuni ta'kidlashimiz joizki, mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar birinchi navbatda, yetuk malakali, raqobatdosh kadrlarni tayyorlash va ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi faoliyatimizga berilgan eng oliy qadriyatlardir. 2-jild Toshkent O'zbekiston 2018 508-b.

2. Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi 2021-yil 24-yanvar. T: Tasvir nashriyot uyi 2021.

3. Qambarova J.X, Turdaliyeva M.M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta'lim jurnali, 2014-yil 7-son 19-b.

